



# CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES ISSN: 2660-5317

*Special Issue, 2022 ||*

*"Challenges and Innovative Solutions of Life Safety in Ensuring  
Sustainability in Economic Sectors"*

## IMPROVING THE EFFICIENCY OF TACTICAL ACTIVITIES IN EMERGENCIES

*Professor: Shomansurov Sunnat Sultanovich*

*Master: Makhkamov Abdulkhamid Bahodirjon oğlu*

*Tashkent State Technical University, Department of Life Safety, Candidate of Technical Sciences,  
Associate*

---

*Received 13th Feb 2022, Accepted 15th Mar 2022, Online 7th May 2022*


**Annotation:** *The article describes the measures for the effectiveness of operational and tactical actions in order to reduce the scale of the outcome of emergency situations.*

**Keywords:** *Emergency situations, Economic aspects, Geographic location, Communication operators.*

---

**Introduction.** Yurtimiz aholi soni sezilarli darajada o'sib bormoqda .Gazeta.uz internet nashrining ma'lumotiga ko'ra, 2021-yilning o'zida 712,4 ming kishiga ortib,jami aholi 35 mln dan ortgan va shu bilan bir qatorda favqulodda vaziyatlar ko'lami ham mos ravishda ortmoqda.Bu hodisalar ortidan yangi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar ham paydo bo'lyapti.

2021-yilning IV chorak mobaynida sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar bo'yicha taqqoslash diagrammasi



O'zbekistonda qator sohalarda ushbu ,yuzaga kelishi mumkin bo'lgan aholiga moddiy,ma'naviy hamda jismoniy zarar keltiruvchi holat va hodisalarga qator yechim topish ishlari olib borilmoqda.2019-yilda Ekologik partiyaning tashkil etilishi,sog'liqni saqlash va yo'l transport tizimini tartibga solish maqsadida yo'l harakati qoidalarini qayta ko'rib chiqilishi bu bizning ko'z o'ngimizdagi yaqqol isboti hisoblanadi.Aholi sonining oshib borishi tabiiy,ekologik va texnogen tushadagi favqulodda vaziyatlarning ko'lamini ham kengaytirmoqda.Har bir favqulodda vaziyatni odamlar joniga xavf solayotganini hisobga olsak, FVV xodimlari zimmasidagi majburiyatlar ortayotgani tabiiy.Bunday holatda vaziyatni to'g'ri baholash,re'jalashtirish,xabar berish,tezkor taktik harakatlarni amalga oshirish yuqori aniqlikda harakat qilishni talab etadi.Bartaraf etish choralari ko'rilayotganda qator omillar aniqlikda harakat qilishga to'sqinlik qilishi ko'paymoqda,misol keltiradigan bo'lsak:

O'zbekiston Respublikasi FVV kuch va vositalarni boshqarish markaziga xabar kelib tushganidan so'ng voqea joyiga yetib borishda

- Transport vositalarining yo'ldagi tirbandligi;
- Ko'chalardagi qurilish ishlar tufayli yo'lining harakatlanish uchun berkligi;
- Aholi tomonidan ruxsat etilmagan joyga mashina harakatiga to'sqinlik qiladigan bino qurilishi;
- Aloqa va xabar berishda odamlar manzilini aniq aytib berolmasligi;
- Favqulodda vaziyat xodimlari manzilni topib borolmasligi yoki belgilangan vaqtdan kechikib borishi;

kabi muammolar haligacha o'zining yechimini topganicha yo'q.Rivojlangan mamalakatlarda ham bunday muammolar kuzatilgan albatta. Har yili favqulodda xizmatlarga minglab qo'ng'iroqlar amalga oshiriladi va ularning taxminan 80% ( o'sib borayotgan) mobil qurilmalardan. Ko'p hollarda qo'ng'iroq qiluvchilar qayerdaligini bilishmaydi yoki ular o'z manzillarini ko'rsata olmaydilar,bu ayni haqiqatlardan biri.Natijada,favqulodda vaziyat qutqaruv guruhi belgilangan vaqtda yetib bora olmasligiga olib keladi.Oqibatda moddiy zararining kattalashib ketishi va undan ham ayanchlisi kimningdir o'limi bilan yakunlanishi mumkin.

Hozirgi kunda keng ommalashib borayotgan messenjerlar orqali foydalanuvchi o'zining aniq turgan manzilini yuborishi bunday muammolarga qisman yechim bo'lishi mumkin. Vaziyatni yengillashtirishga to'sqinlik qiluvchi holatlar ham bor. Bularga :

-Favqulodda vaziyat xodimlari xizmat o'tash vaqtida shaxsiy uyali aloqa vositalaridan foydalana olmasligi;

-Har bir shaxsda belgilangan rusumdagi, ya'ni geografik joylashuvini yubora olish xususiyati mavjud bo'lgan telefon apparati yo'qligi;

-Yoki joylashuv o'rni yuborishda ushbu telefonda internet aloqasi cheklanganligi;

-Uyali aloqa operatorlari tomonidan shaxsiy ma'lumotlar oshkor etilmasligi;

-Shaxsiy ma'lumotni olishda belgilangan tartibda murojaat va bunga ancha ko'p vaqt sarf bo'lishi;

shu kabi omillar favqulodda vaziyatlarda belgilangan vaqtda qutqaruvchilarning yordamga yetib borishiga to'sqinlik qilmoqda. Agar favqulodda vaziyatlarga telefon qilgan yordamga muxtoj shaxs geografik joylashuvni (geolokatsiyani) yubora olmasa yoki joylashgan manzilini aniq aytib bera olmasa uyali aloqa operatoriga murojaat bilan chiqish talab etiladi, bu - uzoq vaqt oladi degani.



Geografik joylashuvning yo'l xartasida korinishi

Geolokatsiyani aniqlash foydalanuvchining "google accounti", telefon "IMEI" kodi va GPS orqali aniqlanadi.

Hozirgi kunda deyarli har bir odamda aloqa vositasi borligini inobatda olib mavjud muammoni quyidagicha: favqulodda yordam xizmatiga qo'ngiroq qilgan shaxsning geografik joylashuvi tushishini ta'minlovchi dastur orqali hal etish mumkin. Bu dastur belgilangan manzil bo'yicha

-Axborotlarni qayta ishlaydi;

- Qutqaruv xizmat mashinasiga manzilni yuboradi;
- Haydovchining manzilga yetib borish vaqtini oldindan ko'rsatadi;
- Qisqa vaqtda yetib borishi mumkin bo'lgan yo'l xaritasini ko'rsatadi;
- Asosiy yo'l berk yoki mashinalar tirbandligi yuzaga kelsa boshqa yo'nalish orqali borishni ta'minlaydi; va shu kabi funksiyalar bilan boyitib boriladi.

Favqulodda vaziyatlarda tezkor-texnik harakat qilish uchun Singapur COC mobil ilovasidan foydalanib keladi.

Muammoni hal qilish uchun, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tizimiga qo'ng'iroq qiluvchining joylashuvi imkoniyatlarini rivojlantirishga erishadigan yangi innovatsiya kiritish zarur.

Qo'ng'iroq qiluvchining joylashuvi to'g'risidagi eng yaxshi ma'lumotni taqdim etadigan va favqulodda qo'ng'iroq qilinganda uni to'g'ridan-to'g'ri favqulodda xizmatlarga jo'natishi mumkin bo'lgan tizimni ishlab chiqish va bu esa qo'ng'iroq qiluvchidan faqat telefon raqamini terishni talab qilsin halos.

Mobil favqulodda qo'ng'iroq qiluvchining geografik joylashuvini tez va aniq tekshirish jamoat xavfsizligi va hayotni saqlab qolish uchun juda muhimdir. Favqulodda vaziyat oqibatlarini darajasini o'zgartirish orqali:

- Iqtisodiyot obyektlar barqarorligini ta'minlashga;
- Hayot uchun xavfli yong'inlarga oldindan javob berishga;
- Jiddiy jarohatlanganlarga;
- Transport halokatiga uchranganlarga;
- Qayg'u tushgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyil bo'lgan odamlarga;
- Zo'ravonlikka duchor bo'lgan odamlarga;
- Tibbiy favqulodda vaziyatlarni boshdan kechirgan ko'plab odamlarga tezkor choralar ko'rish mumkin bo'ladi.

**Conclusion:** Keltirilgan ma'lumotlarga tayanib yangi rivojlangan tizimga tezroq o'tish tarafdoriman. Qolaversa bu tizim, Sog'liqni saqlash tizimiga joriy qilish orqali ko'p odamlarni hayotini saqlab qolish mumkin.

Turizmni rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar tezkor operativ xavfsizlik ostida bo'lishi ularning sonini oshirib yanada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga olib keladi.

#### References:

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 9- iyuldagi 184-son qarori

“Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to’g’risida”gi O’zbekiston Respblikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.08.2020 yildagi “O’zbekiston Respblikasi favqullodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 515-sonli qarori

[www.FVV.uz](http://www.FVV.uz) sayti